



**KORPORATIV HUQUQNING UMUMIY QOIDALARI.
MA'SULIYATICHEKLANGAN JAMIYATDA ULUSHLARNING O'TISHI
VA QONUNCHILIKDAGI AYRIM MUAMMOLAR.**

Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs talabasi

Mo'minjonova Ozoda Madaminjon qizi

Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs talabasi

Baxromov Fayzullo Jumaboy og`li

Ilmiy rahbar: Imomov Bahriddin Panjiyevich, Toshkent davlat transport universiteti Xalqaro ommaviy huquq kafedrası katta o`qituvchisi

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada korporatsiyalar tushunchasi ularning turlari, inglizhuquqida korporatsiyalarning asosiy tarkibiy xususiyatlari, korporativ munosabatlarni huquqiy tartibga solish, korporativ huquqiy prinsplar, hamda korporatsiyalarning rivojlanishtarixihaqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari, masuliyati cheklangan jamiyatlarda ulushlarning o'tishida o'ziga xos xususiyatlar hamda bu borada qonunchilikdagi ayrim muammolar va ularga amaliy yechimlar berilgan. Masuliyati cheklangan jamiyatlarda ulushlarning o'tishiga oidsud qarori o'rganilib, unga huquqiy baho berilgan. Kalit so'zlar: Korporatsiya, ma'suliyati cheklangan jamiyat, ulush, yuridik shaxs, hissadorlik, cheklangan javobgarlik, erkin o'tkaziladigan ulushlar, mulk huquqi, korporatsiya ishtirokchilari.*

АННОТАЦИЯ *В данной статье рассматривается понятие корпораций, их виды, основные структурные особенности корпораций в английском праве, правовое регулирование корпоративных отношений, принципы корпоративного права, а также История развития корпораций. Кроме того, даны особенности перехода долей в обществах с ограниченной ответственностью, а также некоторые законодательные проблемы и практически решения по этому вопросу. Было изучено решение суда о передаче долей в обществах с ограниченной ответственностью и дана его правовая оценка. Ключевые слова: корпорация, общество с ограниченной*



ответственностью, доля, юридическое лицо, вклад, ограниченная ответственность, свободно передаваемые доли, право собственности, участники корпорации.

ANNOTATION This article discusses the concept of corporations, their types, the main structural features of corporations in English law, the legal regulation of corporate relations, the principles of corporate law, as well as the history of corporate development. In addition, the specifics of the transfer of shares in limited liability companies are given, as well as some legislative problems and practical solutions on this issue. The court's decision on the transfer of shares in limited liability companies was studied and its legal assessment was given. Key words: corporation, limited liability company, share, legal entity, contribution, limited liability, freely transferable shares, ownership right, members of the corporation. *участники корпорации.* **KIRISH.** Savdo faoliyatida moddiy manfaatga erishish uchun qadimdan savdogarlar o'zaro birlashib sherikchilik faoliyatini yo'lga qo'yganlar va bu savdoning rivojlanishiga hamda foydaning samarali bo'lishiga yordam bergan. Ushbu ijtimoiy munosabatlarni, hozirgi vujudga kelgan yirik korporatsiyalarning ilk hamda soda rivojlanish tarixi desak mubolaga bo'lmaydi. Hozirgi kunda korporatsiyalar ishtirok etish (a'zolik) tamoyillariga asoslangan tashkilot bo'lib, uni 1073 boshqarish maxsus organlar tizimini tashkil etish orqali, uning ishtirokchilari manfaatlarini amalga oshirish uchun yaratiladi. Ingliz huquqida – biznes korporatsiyalarning 5 ta asosiy tarkibiy xususiyatlari mavjud: 1) mustaqil yuridik shaxs (legal personality); 2) cheklangan javobgarlik (limited liability); 3) erkin o'tkaziladigan ulushlar (aksiyalar) (transferable shares); 4) kompaniya kengashi tarkibida markazlashtirilgan boshqaruv, korporatsiya nomidan uning organlari harakat qilishi (centralized management under a board structure); 5) hissadorlarning xususiy kapitalga birgalikda egalik qilishi (shared ownership by contributors of equity capital) 1. Savdo faoliyatining shiddat bilan rivojlanishida shaxslarning o'zaro birlashuvi muhim ahamiyatga ega, negaki biron - bir yirik tijorat faoliyati bilan shug'ullanishda albatta samarali natijaga erishish uchun, bir shaxsning mablaglari yetarli hisoblanmaydi. Shu sababli ham shaxslar



birlashuvi natijasida korporatsiyalarning ilk ko'rinishlari paydo bo'lgan. Xususan Rimda – “universitetlar” va “kollegiyalar” kabi tushunchalar ishlatilgan bo'lib, bushaxslar ittifoqi, bundan tashqari qoramol, otlar podasi yoki uy, kema kabi boshqa tushunchalarga o'plamini nazarda tutgan. “Korporatsiya” so'zi (lotincha) kishilar guruhi, ittifoqi, muayyan kasb yoki manfaatdagi kishilar birlashmasi ma'nolarida ishlatilgan. “Korporatsiya” tushunchasi lotincha yuridik shaxsiyatni anglatuvchi “corpus habere” iborasidan kelib chiqqan. Bunday yuridik shaxs huquqi Rim imperiyasi davrida xususiy shaxslar birlashmalariga berilgandi.²

Korporatsiyalarning rivojlanish tarixi quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi:

- o'rta asrlar - yakka tadbirkor, sheriklar;
- 19 asrlarda - industrial revolyutsiya – cheklangan mas'uliyat va mustaqil javobgarlikka asoslanga tadbirkorlik subyektlari;
- 20 asrlarda - ommaviy ishlab chiqarish - katta korporatsiyalar - boshqaruv va egalikning bo'linishi, aksiyadorlarning ko'payishi va diversifikatsiyasi;
- 21 asrlarda - moliyaviylashuvning kuchayishi - globallashtirish va kapital oqimlari.

Korporatsiyalar shaxslarning va kapitallarning birlashuvi natijasida vujudga keladi, jumladan AJ, MCHJ lar kapital birlashuviga, shirkatlar hamda kooperativlar shaxs va kapital birlashuviga asoslangan korporatsiyalar sanaladi. Mas'uliyati cheklangan jamiyat kapital birlashuviga asoslangan korporatsiya hisoblansada, lekin shuni inobatga olish kerakki, jamiyatni sof kapital birlashuvi deb ham bo'lmaydi, qisman shaxslar birlashuvini ham o'zida mujassamlashtiradi, buning sababi, ulushlarni sotish va sotib olish orqali jamiyatga kirish va chiqishdagi bazi to'siqlarning mavjudligidir. Kontinental Yevropa huquqida korporatsiya kengroq ma'noda tushuniladi. Unga ko'ra korporatsiya deganda xo'jalik jamiyalari AJ va MCHJ bilan birga shirkatlar (xo'jalik shirkatlari), sherikchilikka asoslangan boshqa birlashmalar ham tushuniladi. E'tiborli jihati shu ki qonunchiligimizda korporatsiya atamasi normativ hujjatlarda deyarli ishlatilmaydi. Ushbu tushunchaning qonunchilikka kiritilishi meni fikrimcha maqsadga muvofiq bo'lar edi

Korporativ huquq – bu korporatsiyalarni tashkil etish, ular faoliyatini amalga oshirish va ularni tugatish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi



huquq normalari yig'indisidir. Korporativ huquqning predmeti korporativ huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Shu o'rindak korporativ huquqiy munosabatlar deganda, korporatsiyani tashkil etilishi, faoliyat yuritish va tugatilishi bilan vujudga keladigan huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni tushunishimiz kerak. Har bir ijtimoiy munosabatlarning huquqiy prinsplari bo'lgani kabi, korporativ huquqning asosiy prinsplari quyidagilardan iborat: 1) proporsionallik prinsipi; 2) ko'pchilik irodasining ozchilik irodasidan ustunligi (demokratizm prinsipi); 3) daromadni taqsimlashda tenglik prinsipi (ulushlarga mutanosib ravishda); 4) korporatsiya boshqaruv organlarining mustaqilligi prinsipi; 5) korporativ huquqlarni suiiste'mol qilmaslik prinsipi; 6) majburiyatni bajarishda iqtisodiy samaradorlik prinsipi; Fuqarolik kodeksi yangi loyihasining 76-moddasiga asosan korporatsiyalarning ikki turi ommaviy hamda ommaviy bo'lmagan jamiyatlar ajratilgan. Ommaviy jamiyatlar sifatida AJ larini ko'rasatishimiz mumkin, uning ommaviyligi shundaki, jamiyatga ta'luqli ma'lumotlar ochiq hamda ulushlar erkin muomalada bo'ladi. Ommaviy bo'lmagan jamiyatlar sifatida MCHJ va xo'jalik shirkatlarini namoyon bo'ladi. Ularning ommaviy bo'lmagan jamiyatlar sifatida e'tirof etilishining sababi shuki, jamiyatga oid ma'lumotlar yopiq bo'ladi, hamda ulushlarning o'tishiga doir bir qancha cheklovlar mavjud masalan MCHJ da jamiyatga yangi ishtirokchining kirishi umumiy yig'ilish qaroriga asosan amalga oshiriladi. Ulush – bu korporatsiya ishtirokchisiga mulkiy va nomulkiy huquqlar kompleksini taqdim etadi. Ishtirokchi ulushining nominal qiymati – bu pul ifodasidagi shartli abstrakt qiymat bo'lib, jamiyat tashkil etilganda ishtirokchining qo'shgan hissasi qiymati bilan belgilanadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak nominal qiymat ishtirokchining o'z hissasini kiritgandagi qiymat hisoblanadi. Jamiyat ishtirokchisi ulushining haqiqiy qiymati kompaniyaning sof aktivlari qiymatining, ishtirokchining ulushi hajmiga mutanosib qismiga to'g'ri keladi. Haqiqiy baho ishtirokchi ulushining haqiqiy qiymatiga teng. Ulushning haqiqiy qiymati ayrim hollarda jamiyat (uning ishtirokchilari) ning ishtirokchi va uchinchi shaxslar oldidagi, masalan, ishtirokchini jamiyatdan chiqishi yoki chetlatilishi bo'yicha majburiyatlari miqdorini belgilaydi.³ Ishtirokchining ustav kapitalidagi ulushi ishtirokchining jamiyatga



nisbatan mulkiy va nomulkiy huquqlari (korporativhuquqlari) majmui mavjudligini tasdiqlaydi va ulush hajmi bu huquqlar doirasini belgilaydi. Ulush quyidagi uch funksiyasi amalga oshiradi: • ishtirokchining kompaniyadagi moliyaviy hissa miqdori; • ishtirokchining huquqlari ko'rsatgichi; • mulk huquqi (sotiladi, garovga qo'yiladi). Ulushning huquqiy tabiatiga to'xtaladigan bo'lsak, ulush o'zida mulk huquqi va shartnomaviyhuquq xususiyatlarini ifodalaydi. Ulush bu mulkning bir qismiga egalikni bildirmasdan, balkibirqancha huquqlar jamlanmasiga egalikni bildiradi. 3 B.Umarov, X.Atajanov. Korporativ huquq o'quv qo'llanma. Toshkent 2021. 22-24 betlar. 1075 Masalan: • ovoz berish; • dividend (AJ) yoki foyda (MCHJ) olish; • direktorni saylash. Mulk huquqi sifatida ulush sotilishi, ijaraga berilishi, garovga qo'yilishi mumkin. Shartnomaviyhuquq sifatida esa ma'lum bir majburiyatlarni olishi mumkin. Jumladan: • sotib olishdagi imtiyozli huquq; • sotishga qarshi qo'yilgan ustavdagi cheklovlar. Ulush mulk sifatida tavsiflansada ishtirokchi jamiyat mulkiga egalik qila olmaydi, chunki jamiyatga o'z ulushini kiritgan paytdan e'tiboran, bu ulush jamiyatning mulkiga ay lanadi. Ishtirokchilarning, ulushlari quyidagi usullarda o'tishi mumkin: • ta'sis shartnomasini imzolash orqali; • kompaniya ulushini ko'paytirish; • mavjud ishtirokchidan ulushni sotib olish orqali; • ishtirokchining vafoti natijasida meros orqali MUHOKAMA VA NATIJALAR. Yuqorida korporativ munosabatlarga qisqacha oydinlik kiritdik, endi, qonunchilikdamavjudayrim muammolarni birma-bir tahlil qilish orqali, ularga yechimberishga harakat qilamiz. Xususan amiyat ishtirokchisining, jamiyat ustav fondidagi ulushining (ulushi bir qismining) jamiyatning boshqa ishtirokchilariga va uchinchi shaxslarga o'tishi "Ma'suliyati cheklangan hamda qo'shimcha ma'suliyatli jamiyatlar to'g'risida" gi qonuning 20-moddasi tartibgasolingan. Jumladan, jamiyat ishtirokchisi, jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushini yoki uning bir qismini jamiyatning bir yoxud bir necha ishtirokchisiga, sotishga yoki boshqachatarzda ularning foydasiga voz kechishga haqli. Bunday bitimni tuzish uchun, agar jamiyat ustavidaboshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, jamiyatning yoki jamiyat boshqa



ishtirokchilariningroziligi talab qilinmaydi. Umumiy qoidaga ko'ra jamiyat ishtirochisi o'z ulushini istalganvaqtdasotishi mumkin biroq, jamiyat ustavida ulushlarning o'tkazilishiga oid maxsus qoidalarhambelgilanishi mumkin. Qonuning 20-moddasida "jamiyat ishtirokchisi, agar jamiyatning ustavida taqiqlanganbo'lmasa,o'z ulushini uchinchi shaxslarga sotishi yoki boshqacha tarzda ularning foydasiga vozkechishimumkin" degan qoida mustahkamlangan. Demak qonunga ko'ra ustavda ulushninguchinchishaxsga sotilishini cheklab qo'yish mumkin. Agarda, ustavda ulushning uchinchi shaxslargasotilishi cheklangan bo'lsa, o'z ulushini sotish niyatidagi ishtirokchi boshqajamiyatishtirokchilariga, hamda, jamiyatga ulushni sotishni taklif qilsayu lekin, ular tomonidanuningulushi sotib olinmasa, bunday holda ishtirokchi qanday qilib o'z ulushini sotib jamiyatdanchiqibketishi mumkin. Bu o'z navbatida ishtirokchining qonunni 8-moddasida nazardatutilgan"jamiyat ishtirokchisi, jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat'i nazar, jamiyatningta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyatdan chiqish"huquqicheklanishiga sabab bo'lmaydimi. O'z o'zidan ma'lumki qonunda ushbu vaziyat ta'sishujjatlarining qoidalariga ko'ra hal qilinishi kerakligi nazarda tutilmoqda, biroq, ustavdaulushning uchinchi shaxslarga sotilishi ta'qiqlangan bo'lib, lekin sotilishi taklif etilayotganulushning keyingi taqdiri qanday hal qilinishi belgilanmagan bo'lsa yani ulushbuvaziyatdamajburiy tartibda ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadimi yoki jamiyat sotib oladimi yoki boshqaqoidalar ko'rsatilmagan bo'lsa, ushbu holatda o'z ulushini sotib jamiyatdan chiqishistagidagiishtirokchining taqdiri qanday hal qilinadi. Afsuski, qonunchilikdagi ushbu bo'shliq, kichiklekin ayni damda dolzarb muammolardan biridir. Bundan tashqari 262-sonli plenumqarorining 1076 21-bandiga asosan ishtirokchi tomonidan jamiyatga nisbatan berilgan o'zini jamiyatdanchiqarish haqidagi talab bilan sudga murojaat qilinganda, bunday talabni qanoatlantirishradqilinishi belgilangan. Demak, ishtirokchi o'zini jamiyatdan chiqarish to'g'risidagi talabbilansudga murojaat qilganda, uning talabi qanoatlantirilmaydi, chunki qonuning 8-moddasidaunijamiyatda chiqish huquqi bor, lekin amalda ustav qoidalari bunga yo'l qo'ymaydi. Shusababliham sud amaliyotida



ushbu muammoni sudlar, boshqa shaxslarni jamiyatga majburiy kiritish to'g'risida hal qiluv qarorini chiqarish orqali hal qilmoqdalar. Lekin, bu yopiq turdagi korporativ munosabatlarga ziddir. Bunday qarorlar chiqarilishining oldini olish uchun, qonunga agarda, ustavda ulushning uchinchi shaxslarga sotilishi cheklangan bo'lsa, vabu ulushimtiyozli huquqda sotib oluvchilar tomonidan sotib olish rad etilgan, yohud ular xabar nomab berilgan kunda e'tiboran bir oy ichida javob bermagan taqdirda, ulush uchinchi shaxslarga sotilishi mumkinligi, agarda bunga boshqa ishtirokchilar qarshi bo'lsa, ulush jamiyat tomonidan majburiy sotib olinishi, yohud ishtirokchilarning ulushiga mutanosib ravishda sotib olinishini nazarda tutuvchi qoidalar, istisno tariqasida kiritilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Maqoladan kelib chiqadigan asosiy fikrlar uyg'uligani ham shundan iborat korporativ huquqni asosiy tamoyili va unga qaratilgani ham tushunchasi ham shu korinishda olib borilmoqda .